

## JISMONIY MADANIYAT TARIXI FANINI O‘QITISHDAGI INNOVATSIYALAR VA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR

**B.B. Jahongirov**

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport  
Universiteti dotsenti

**M.G‘ Xoldorova**

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport  
2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, ta’limga innovatsion yondashuv g‘oyasi ta’lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo‘nalganligi, ta’lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so‘nggi yutuqlari, ilg‘or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilganligi bilan an’anaviy yondashuvdan farq qiladi, hozirgi davrda ta’lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va maqsadli yo‘naltirish oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** davlat, innovatsiya, kasb, metodika, texnika, mutaxassis, kompetentlik, o‘quv jarayoni, axborot-kommunikatsiya, xorijiy tajriba, oliy ta’lim, ta’lim tizimi.

**Abstact:** In this article, the idea of an innovative approach to education lies in the individual orientation of the content and results of education, the integration of the content, form, methods and means of education with the latest achievements of science and technology, best practices and modern methods. It differs from the traditional

approach in that it is aimed at strengthening the current period of improving the efficiency of education, the development of the level of professional competence of specialists, the use of innovative educational and information and communication technologies in the educational process, the development of advanced foreign experience and targeting. Information is provided on the urgent tasks of modernizing the system of specialized higher education.

**Key words:** state, innovation, profession, methodology, methodology, specialist, competence, educational process, information and communication, foreign experience, higher education, educational system.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda oliy ta’limda o’qitishning modulli ta’lim tizimi ko’pgina rivojlangan davlatlarda o’zining ijobiy samarasini bermoqda. SHu jihatdan bizda ham modulli ta’lim asosida o’qitishni shakllantirish va uni rivojlantirish zamon talabiga aylanmoqda. Modulli ta’lim asosida o’qitish tizimiga to’xtalib o’tadigan bo’lsak, “Modulli o’qitish” termini xalqaro tushuncha bo’lib, modul bilan bog’liq, (“modul”, lat. modulus), uning bitta ma’nosi faoliyat ko’rsata oladigan o’zaro chambarchas bog’liq elementlardan iborat bo’lgan tugunni bildiradi. Bu ma’noda u modulli o’qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi. [1]

“Modul”–bu fanning muayyan jarayoni yoki qonuni, bo’limi, muayyan katta mavzusini, o’zaro bog’liq tushunchalar guruhini taqdim etadi. 1982 yil YUNESKOning anjumanida modulga “Mashqlarni xususiy tezlikda diqqat bilan tanishish va ketma-ket o’rganish orqali individual yoki guruh mashg’ulotlarida bir yoki bir necha malakaga ega bo’lish uchun mo’ljallangan alohida o’rgatuv paket (to’plam)” deb ta’rif berilgan edi. [2]

Modulli o’qitish – o’qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o’zlashtirish tizimga eng yaxshi moslashgandir. Modulli o’qitish asosan inson bosh miyasi to’qimalarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi. [3]

Ta’lim tizimida ilg‘or innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy qilish asosida talaba etarli bilimlarga ham, ko‘nikmaga ham, o‘quvga ham ega bo‘ladi.

Bugungi kunda ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosan 4 guruhga ajratiladi:

1. Muammoli texnologiyalar.
2. Didaktik o‘yinli texnologiyalar.
3. Hamkorlik texnologiyalari.
4. Modulli texnologiyalar. [4]

Ta’limni rivojlanishida o‘z qarashlarini ilgari surgan ijtimoiy psixolog M. Belbin komanda samaradorligini xodimlar tarkibidan keltirib chiqaradi. Uning ta’kidlashicha, guruhning samarasi, undagi a’zolar orasida to‘qqizta rolga oid vazifaning taqsimlanishi bilan bog‘liq. M. Belbin ta’kidlanayotgan to‘qqiz rolga ega guruh, har qanday vazifa ustida samarali faoliyat olib bora oladi, degan xulosaga keladi. SHuningdek, ushbu rollar vazifa mazmuniga muvofiq kelishi kerak. [5]

Ta’lim tizimida innovatsion ta’limning asosiy maqsadi ta’lim oluvchilarda kelajakka mas’uliyat hissini va o‘z-o‘ziga ishonchni shakllantirishdir. J. Botkin boshchiligidagi olimlar guruhi “Rim klubi” ma’ruzasida innovatsion ta’limni an’anaviy, ya’ni “normativ” ta’limga muqobil sifatida bilimlarni egallashni asosiy turi sifatida tavsifladi. Normativli ta’lim “takrorlanuvchi vaziyatlarda faoliyat xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan” bo‘lsa, innovatsion ta’lim yangi vaziyatlarda birgalikda harakatlanish qobiliyatini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern – yangilangan, zamonaviy, tekor o‘shish) ta’lim jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Globallashuv jarayonlarida ta’limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati. [6]

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish-innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo‘lgan tadqiqotlar G‘arbiy Evropa va AQSHda, 60-yillarda paydo bo‘ldi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti amerikalik innovatik E. Rodgers tomonidan

ishlab chiqilgan.U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, yangilikka bo‘lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.[7]

Ilmiy adabiyotlarda metod – tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli, harakat qilish tarzi sifatida izohlanadi.

Bizning fikrimizcha, metod – maqsadga eltuvchi yo‘l, ya’ni, maqsadga erishish yo‘ldagi hatti-harakatlarning o‘ziga xosligidir.

Interfaol ta’lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir talaba o‘z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol ta’lim texnologiyasi – har bir o‘qituvchi barcha talabalar ko‘zda tutilgandek o‘zlashtiradigan mashg‘ulot olib borishni ta’minlaydi. Bunda har bir o‘qituvchi intellektual darajasiga ega holda mashg‘ulotni oldindan ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtiradi. [8]

Zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlarning amaliy yo‘nalishi sifatida bugungi kunda pedagogikada o‘qitishning bir necha metodlari farqlanadi:

1. Passiv – ta’lim oluvchi o‘qitishning “ob’ekti” sifatida namoyon bo‘ladi ( tinglaydi va ko‘radi);

2. Aktiv – ta’lim oluvchi o‘qitish jarayonining “sub’ekti” sifatida namoyon bo‘ladi( mustaqil ish, ijodiy topshiriqlar);

3. Interfaol – pedagog va ta’lim oluvchilarning o‘zaro hamkorligi. Interfaol so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib, «inter» - o‘zaro va «act» - harakat qilmoq ma’nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol - ya’ni o‘zaro harakat qilmoq ma’nosini anglatadi. Bunday o‘zaro harakat turlariga “talaba–o‘qituvchi” va “talaba-talaba”ning maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. [9]

Xulosa qilib aytganda, jamiyat rivojlanishi va ta’lim tizimi o‘rtasidagi munosabat murakkab ko‘rinishga ega bo‘lib, yuqori darajadagi jo‘shqinlik bilan farqlanadi. Ta’lim barcha faol va sust o‘zgarishlar ta’sirini qabul qilavermaydi, jamiyatda bo‘layotgan voqealarga esa o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi soha

va bo‘limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differentsiallashtiruvini ta’minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Abdumalikov R., Akramov A.K. O‘zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixini o‘rganish masalalari, O‘quv qo‘llanma. -T. 1994.-B.42.
2. Botirov X.A. Jismoniy tarbiya va sport tarixi. O‘quv qo‘llanma. -T. Ibn Sino, 1993.
3. Jahongirov B.B. O‘zbekistonning hindiston bilan ilmiy - texnikaviy aloqalari. Academic research in educational sciences. Issn 2181-1385 volume 3, issue 5 may, 2022./05.-B.1059
4. Jahongirov B.B. O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan ilmi-texnikaviy aloqalari. O‘tmishga nazar jurnali. 2021.2-son.4- jild.-B.16
5. Jahongirov B.B. O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan ilm-fan sohasidagi hamkorlik aloqalari. Academic research in educational science. Volume 2 | special issue 2 | 2021.02; -B. 987
6. I.A. Karimov. Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch.2008.
7. Jahongirov B.B. O‘zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan ilmiy - texnikaviy aloqalari. Academic research in educational sciences, 2021.05.volume.2. Issue.5.- B.1017.
8. Jahongirov B.B. Международные связи Узбекистана в области науки. International scientific and practical conference. The time of scientific progress, Warsaw, Polsha, 05.11.2022. Session1, Part 3. – С.20.
9. Слостенин В.А. Педагогика. - М.: "Академия", 2002.